

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOIIY MUAMMOLARINING IJTIMOIIY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamovna</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVİY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javlijeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

THE FORMATION AND DEVELOPMENT STAGES OF INDUSTRY IN KARAKALPAKSTAN (SECOND HALF OF THE 20TH CENTURY)

Abatov Aydos

Nukus branch of the Samarkand State University
of Veterinary Medicine, Animal Husbandry and Biotechnologies

Abstract. This article examines the history of the formation and development of industry in the Republic of Karakalpakstan. The initial stages of industry, industrialization processes during the Soviet period, modernization after independence, and the current state of the industry are analyzed. In addition, the influence of industry on the economic development of the region and the growth dynamics of key sectors were studied. The study also addresses environmental problems, innovative directions of industry, and prospects for its further development.

Keywords: industry, light industry, cooperation, gross value added.

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI)

Abatov Aydos

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik
va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoatning shakllanishi va rivojlanish tarixi ko'rib chiqiladi. Sanoatning dastlabki bosqichlari, sovet davrida sanoatlashtirish jarayonlari, mustaqillikdan keyingi modernizatsiya va sohaning hozirgi holati tahlil qilingan. Bundan tashqari, sanoatning mintaqa iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri, asosiy tarmoqlarning o'sish dinamikasi o'rganilgan. Shuningdek, tadqiqotda ekologik muammolar, sanoatning innovatsion yo'nalishlari va uni yanada rivojlantirish istiqbollariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: industriya, yengil sanoat, kooperatsiya, yalpi qo'shilgan qiymat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N11>

Kirish. Qoraqalpog'iston sanoatining rivojlanishi paxtachilikning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Markaz respublika va mahalliy byudjet bo'yicha markazlashtirilgan yirik mablag'ni 125 million so'm miqdorida sarflashni belgiladi. Xalq xo'jaligini qayta tiklash davrida mahalliy sanoat rivojiga ma'lum darajada e'tibor qaratildi. 1946-1950-yillari Qo'ng'iro't, Xo'jayli, Chimboy yog' ishlab chiqarish zavodlari, Porlitov baliq zavodi, Oqtov qurilish materiallari kombinati, Nukus motor ta'mirlash zavodi, yog'-sut zavodi, pivo zavodi, elektr stansiyasi ishga tushirildi. Shuning uchun urushdan keyingi yillarda yog' ishlab chiqarish, baliqchilik va paxta tozalash sohalarining rivojlanishi ko'zga tashlandi: o'simlik paxta yog'i ishlab chiqarish 1940-yildagi 30 tonnadan 1950-yilda 6,9 ming tonnaga, baliq va go'sht konservalari 1940-yilda 20 ming qutidan 1950-yilda 10,6 million qutiga yetdi[1;325-326].

Adabiyotlar tahlili. Urushdan keyingi yillarda ham (oldin vujudga keltirilgan) boshqaruvning markazlashtirilgan xarakteri saqlab qolindi. 1946-yildan xalq xo'jaligi tarmoqlari ittifoq va ittifoq-respublika hamda respublika ministrliklari orqali boshqarilgan.

Ular o'z vaqtida sotsialistik sanoat tarmoqlarini rivojlantirish bilan birga, yangi sanoat tarmoqlarini vujudga keltirishda alohida rol o'ynagan edi. Sanoatga rahbarlikni kuchaytirish uchun doimiy organlar – tarmoq sanoat ministrliklari tuzilgan.

Ittifoq hukumati tomonidan O'zbekiston qishloq xo'jaligini kompleks mexanizatsiyalashga, irrigatsiya va melioratsiya qurilishiga, shuningdek, xo'jalikni kompleks rivojlantirishni ta'minlash maqsadida energetika va yoqilg'i sanoatini, mashinasozlikni, binokorlik materiallari ishlab chiqarish, yengil sanoatni va boshqa tarmoqlarni yuksaltirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, yangi yerlarni o'zlashtirishga katta mablag' ajratildi.

1956-58-yillarda Beruniy paxta tozalash zavodi, Xo'jayli go'sht kombinati, Shabboz yog' zavodlari qurildi. Ushbu qurilishlarda ilk bor murakkab temir-beton konstruksiyalari va detallari qo'llanila boshlandi.

XX asrning 50-yillaridagi qishloq xo'jaligidagi tajribalar qishloq aholisining shaharlarga to'planishiga olib keldi. Agar 1950-yili Qoraqalpog'iston kolxozlarida 42500 xo'jalik yashagan bo'lsa, 1953-yilning oxirida qishloqlarda 41186 xo'jalik qoldi[2; 15].

Qoraqalpog'iston baliq sanoati 1956-yili 23 tonna baliq topshirdi. Yangi uskunalar bilan ta'minlangan Mo'ynoq baliq konserva zavodi 1959 sho'rtali quti konserva topshirdi.

Lekin markazning o'lkamizda paxtachilikni rivojlantirish uchun qaratilgan chora-tadbirlari oqibatida sanoatimizning boshqa tarmoqlariga yetarlicha e'tibor qaratilmadi. Sanoatning paxta tozalash, yog' ishlab chiqarish, yengil sanoat korxonalari qurilishi asta-sekinlik bilan olib borildi. Sulton Uvaysdagi, Ustyurtdagi boy yer osti kon zaxiralari ishlab chiqarishda foydalanilmay qoldi. Shuning uchun Qoraqalpog'iston aholisining moddiy va ijtimoiy ahvoli past bo'lib, hatto O'zbekistonning viloyatlari bilan solishtirganda 30-40-yil orqada qolib keldi. Respublikamizda boshqaruvni mahalliy kadrlarga ishonmay, markaz vakillari tumandan boshlab respublika rahbarlik organlarida o'tirishi xalq xo'jaligining barcha sohalariga, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Davlat va kooperativ sanoatida barcha mahsulotning umumiy miqdori 1950-yilda 1940-yilga nisbatan deyarli ikki baravar o'sishi belgilandi. Besh yillik rejaga muvofiq respublika va mahalliy byudjet bo'yicha markazlashtirilgan yirik mablag' sarfi 125 million so'm miqdorida belgilandi [3;36].

1950-yilda respublikada sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1945-yilga nisbatan 2,3 baravar o'sdi. 1946-1950-yillarda go'sht ishlab chiqarish 542 tonnadan 674 tonnaga, o'simlik yog'i-777 tonnadan 6881 tonnaga, baliq konservalari-5869 ming shartli qutidan 10563 ming shartli qutiga, paxta tolasi ishlab chiqarish-21,5 ming tonnadan 41,5 tonnaga o'sdi [4;12].

Muhokama. Qoraqalpog'istonning mahalliy va kooperativ sanoatiga katta ahamiyat berildi. Ularning barcha mahsulotining umumiy miqdorini 1950-yilda 18,3 million so'mga yetkazish belgilandi, bu 1940-yilga nisbatan 2,3-marta ko'p edi.

Qoraqalpog'iston avtonom respublikasining mehnatkashlari o'zlariga yuklatilgan topshiriqlarni bajarishda fidokorona mehnat qildi.

Sanoatni rivojlantirish bo'yicha avtonom respublikada 1951-1954-yillardagi besh yillik rejasi bajarildi, shuningdek ayrim sohalar bo'yicha rejalari ancha ortig'i bilan bajarildi. Barcha sanoat mahsulotining o'sish sur'ati 1955-yili 1950-yilga nisbatan 78 foizga, 1940-yilga nisbatan esa 2,2 baravarga o'sdi. O'rtacha yillik mehnat unumdorligi 7 foizga o'sdi, mahsulot tannarxi esa kamaydi. 1951-1954-yillarda ishchilar soni 9415 dan 11210 kishiga o'sdi [5;38].

1951-1955-yillarda Xo'jayli go'sht kombinati, Beruniy paxta tozalash zavodi, Xo'jayli g'isht zavodi va Taxiatoshdagi ta'mirlash-mexanika zavodlari ishga tushirildi. 1951-yili tarkibida energopoyezd va umumiy quvvati 1524 kilovattlik barqaror elektr stansiyasi bo'lgan Taxiatosh energetik xo'jaligi tuzildi va avtonom respublikada zamonaviy energetik bazasini yaratishning poydevori solindi.

Sanoatda sifat o'zgarishlari yuz berdi. Mayda korxonalarni birlashtirish va ayrimlarini tugatib, ishlab chiqarishni jamlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ishlab chiqarilgan barcha mahsulotning umumiy miqdori asosan yirik sanoat hisobiga ko'paydi. 1955-yilda sanoat korxonalarining soni 1950-yilga nisbatan respublikada 12 foizga qisqardi, yirik sanoat korxonalarining soni esa 34 foizga o'sdi. Yirik sanoatda ishlovchi ishchi va xizmatchilar soni 1,3 barobar ko'paydi, asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati esa 2 barobar o'sdi [6;8].

Bu yillarda sanoat o'sish sur'atini davom ettirdi. 1955-1960-yillarda uning barcha mahsulotining o'sish sur'ati 25 foizga yetdi. Bu yillarda Beruniyda o'simlik yog'i zavodi, Nukusda makaron fabrikasi, omixta yem va silikat-beton zavodi, To'rtko'lda dizel elektr stansiyasi, Nukus, To'rtko'l, Beruniy, Qipchoq, Xo'jaylida un zavodlari va ko'plab sanoat korxonalari qurilib ishga tushirildi.

Yirik mablag'larning miqdori ancha o'sdi, 1955-1960-yillarda 118 million so'mga asosiy fondlar ishga tushirildi. Bunga qurilish materiallari sanoatining rivojlanib, qudratli yangi texnika bilan qurollangan yirik kesuvchi-pudratchi tashkilotlarning yaratilishi tufayli erishildi va qurilishda sezilarli miqdoriy va sifat o'zgarishlariga imkon berdi. 594 km elektr uzatish liniyasi, 232 km asfalt yo'llar qurildi.

Baliqchilik sanoatida sezilarli yutuqlarga erishildi. 1960-yilda baliq ovlash miqdori umuman O'zbekistonda ovlangan baliqning 97,8 foizini tashkil etdi. Baliq konservalari ishlab chiqarish ko'paydi. So'nggi uch yilda Mo'ynoq baliq-konserva kombinati yiliga o'rtacha 20,6 million dona shartli quti konserva ishlab chiqardi.

XX asrning 50-60-yillarda Orol dengizi havzasida ondatra xo'jaligi rivojlana boshladi. 1946-yilga nisbatan 1955-yilda ondatra terisini tayyorlash 377-marta oshdi. 1955-yilda ondatra ishlab chiqarish xo'jaligi 3837 ming so'm foyda ko'rdi. 1956-yilda u sobiq SSSR tarkibida ondatra terisining soni va sifati bo'yicha birinchi o'rinni egalladi.

Qoraqalpog'istonda ancha past rivojlangan energetika sanoati edi. Respublikada energetika sanoatining korxonalari kommunal va sanoatning o'rta quvvatli stansiyalarini hamda MTS dizel qurilmasi bilan kolxoz elektr stansiyalarini o'z ichiga olar edi. 1956-yilning 1-yanvariga umumiy quvvati 12773 kvt 117 elektr stansiya 32159 ming kvt/s. elektr energiya ishlab chiqardi. Yoki, sanoat elektr stansiyalarining o'rtacha quvvati 126 kvt bo'lib, bitta sanoat stansiyasi 326 ming kvt/s. elektr energiyasini ishlab chiqarar edi. 50-yillarda elektroenergetika sohasining rivojlanishida kuchli o'zgarishlar yuz berdi. 1956-yil mart oyida Qoraqalpog'iston ASSR ishlab chiqaruvchi kuchlarining kompleks rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega Taxtakopir davlat tuman elektr stansiyasining qurilishi boshlandi. Qoraqalpog'iston aholisining fidokorona mehnati natijasida 1961-yil 10-sentyabrda Taxiatosh GRESining birinchi navbati tantanali ravishda ishga tushirildi[6;8].

XX asrning 60-yillarida yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlandi. Sanoatning yetakchi tarmog'i paxtachilik bo'lib keldi. Agar 1961-yili 75,3 ming tonna paxta tolasi ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1970-yilga kelib u 98,5 ming tonnaga yetdi. 1963-yili yirik To'rtko'l paxta zavodi ishga tushirildi. Yog' ishlab chiqarish, un ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlana boshladi.

Agar Nukus makaron zavodi 1960-yili 582 tonna mahsulot chiqarsa, 1970-yili 1620 tonna mahsulot oldi.

Oziq-ovqat sanoatida 1960-yil Mo'ynoq baliq konserva kombinati eng ko'p mahsulot bergan yil bo'ldi: U 20,1 million shartli quti baliq ishlab chiqardi. Ammo Orol fojiasining ta'siridan bu ko'rsatkich kamayib bordi: 1965-yili — 13,8 million, 1970-yili — 12,5 million, 1975-yili — 13,8 million bo'ldi. Mo'ynoq kombinatining yillik quvvati 17,4 millionga teng, biroq 1975-yildan boshlab baliq zaxiralari okean baliqlari bilan to'ldirilib kelindi. Shu vaqtdan boshlab baliqchilik ichki ko'llarga ko'chirilib, avvalgi mashhur baliqchilar asta-sekin sholi ekishga va chorvachilikka aralasha boshladi[2;15].

Qoraqalpog'istonda katta qurilish ishlari olib borildi: 1959-1965-yillari yirik mablag'lar 520 million so'm, 1966-1970-yillari esa 812 million so'mni tashkil etdi. XX asrning 60-yillarida Amudaryo uzra ko'chma ko'priq qurildi, Sultonuzdag'da maydalash-sortlash zavodi, Xo'jalida sut-yog' ishlab chiqarish zavodi, Nukus konserva zavodi, poytaxtimizda aerovokzal va telemarkaz ochildi. Qurilish ishlarining rivojlanishiga Nukus yirik panelli uy-joy qurilishi zavodi va silikat zavodining ochilishi va ishga tushirilishi katta ta'sir ko'rsatdi.

Natija. Qoraqalpog'istonning ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi TaxiatoşGRESning yoqilg'i-energetik quvvatini ko'paytirish bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. TaxiatoşGRESi O'zbekiston energetika tarmoqlari orqali O'rta Osiyo energotizimiga qo'shildi. TaxiatoşGRESining kuchayishi (1970-yili — 769,7 million kvt/s.) va O'rta Osiyo energetika tizimiga ulanishi shaharlarni, qishloqlarni, sanoat va madaniy obyektlarni elektr quvvati bilan uzluksiz ta'minladi. 1970-yili respublikamizning barcha qishloq tumanlari elektrlashtirildi. Buxoro-Ural, O'rta Osiyo-Markaziy gaz o'tkazgichi qurilishida Quyi Amudaryo tumanining ehtiyojlari ham hisobga olinib, gaz o'tkazgich quruvchilari tajribasida birinchi marta Qizilqum va Qoraqumning qumliklarini, Ustyurt toshli tekisligini, Orol bo'yi suvsiz yotgan qirlarni kesib o'tdi. Qoraqalpog'iston sanoat korxonalari va aholi punktlari gazlashtirila boshlandi.

Xulosa. Qoraqalpog'istonda sanoat korxonalari asosan xom ashyoni qayta ishlashning dastlabki bosqichlarigagina moslashishi sanoatning oldinga qarab rivojlanishiga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ishlab chiqarishda mahsulot sifatiga emas, balki miqdoriga katta e'tibor berilgani tufayli aholi uchun zarur tovarlar ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga kamayib bordi. Holbuki, urushdan keyingi yillarda yengil, oziq-ovqat sanoatining respublika aholisining keng iste'mol mollari bo'lgan talab va ehtiyojlarini qondirishdagi imkoniyatlari katta edi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Қарақалпақстанның жаңа тарийхы.Қарақалпақстан XIX әсирдің екінші ярымынан ХХІ әсирге шекем. Нөкис «Қарақалпақстан» 2003
2. Народное хозяйство Каракалпакской АССР.Статсборник, Изд-во «Каракалпакстан»,1971,15-б.
3. 25 лет Каракалпакской АССР. Нөкис: ККгосиздат...1950.36-б.
4. Тлеубергенов Ш. Темпы развития и совершенствование отраслевой структуры промышленности Каракалпакии. Нукус, Изд. «Каракалпакстан»,1977,12-б.
5. Экономические преобразование Каракалпакии за годы Советской власти. Нукус: Из-во «Каракалпакстан»,1969,38-б
6. Материалы по производительным силам Узбекитана. вып.12. Из-во АНУзССР, Ташкент, 1959,8-б

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).